Abdullayev O., Fattaxov A., Fayzullaev J. "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasining shakllanishi, uning mazmuni va mohiyati, raqamli texnologiyalar va ularning O'zbekistonda shakllanishi va qo'llanishi ilmiy yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilgan va guruhlariga ajratgan [2],[3].

Oltaev Sh. o'z tadqiqot ishida raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakat qishloq xo'jaligini iqtisodiy rivojlantirish bosqichlari va uning institutsional shart-sharoitlarini o'rganilgan [4].

Ivashova O.N. o'z tadqiqot ishlarida qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladigan asosiy raqamli texnologiyalar tavsifini ko'rib chiqqan. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish mehnat unumdorligini oshirishi, samarasiz xarajatlarni kamaytirishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatlarini o'rgangan [7].

Ostaev G.Ya. tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga raqamli transformatsiyaning ta'sirini tahlil qilgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini raqamlashtirish barcha jihatlarida ma'lumotlarni tezkor qayta ishlashga, minimal mehnat sarfi bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga va maksimal tezkor vaqt effektiga erishishga yordam beradi, degan xulosaga kelgan [12].

Fedorov A.D. tadqiqotida chorvachilikni raqamlashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilgan, iqtisodiyotni (shu jumladan, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini) raqamli transformatsiya jarayonidagi asosiy yo'nalishlari va qishloq xo'jaligida buyumlar internetidan foydalanish istiqbollari yoritishga harakat qilgan [13].

Xabibullina L.A. va Karimova G.I. tadqiqot ishlarida chorvachilikni raqamlashtirishning asosiy istiqbolli yo'nalishlarini aniqlagan. Chorva mollari holatini monitoring qilish tizimi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatik va robotlashtirish, chorva mollari identifikatsiya qilish tizimini joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni raqamlashtirish jarayonlari o'rganilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligini aniqlash maqsadida chorvachilikda robotlashtirilgan qurilmalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqilgan [14].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligini modellashtirish xususiyatlarini quyidagi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Kladko V.A. va Zozulya V.V. o'z tadqiqot ishlarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini optimallashtirishda matematik modellashtirishdan foydalanish yondashuvlarini tahlil qilishga bag'ishlagan. Matematik modellar va raqamli platformalar, sun'iy intellekt hamda katta ma'lumotlarni integratsiyalashdagi zamonaviy tendentsiyalarni ko'rib chiqadi. Tadqiqot natijasida matematik modellar qo'llanilishi ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, resurslarni oqilona taqsimlash va hosildorlikni bashorat qilish aniqligini oshirish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshiradi [10].

Lavrushina E.G. tadqiqotida parrandachilikda ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqadi va imitatsion modellashtirishni qo'llash imkoniyati tufayli operativ boshqaruv vazifalarini hal qilishda parranda mahsulotlarini qayta ishlashning murakkab texnologik jarayonlari tavsifi taqdim etadi. Parrandachilikda operativ boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun uning keyingi joriy etilishi va rivojlanishi istiqbollari ko'rib chiqilgan [11].

Zvonarev S. matematik modellashtirishning asosiy tushunchalarini ko'rib chiqqan. Matematik modellar va ularni qurish prinsiplari taqdim etilgan. Fizika, kimyo, biologiyadagi matematik modellar misollari tasvirlangan [6].

Lingireddy H. va Bhargava K. raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligida samaradorlik, hosildorlik va barqarorlikni oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bu texnologiyalar sug'orish, o'g'itlash, zararkunandalarga qarshi kurash va hayvonlar salomatligi kabi o'simliklar va chorvachilikning turli jihatlarini nazorat qilish va yaxshilash uchun ishlatilishi mumkinligini bayon etgan [1].

Ignasheva T.A. Mariy Respublikasi tumanlarini tasniflash, iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha sifat jihatidan bir xil hududlar guruhlarini uchun chorvachilik va dehqonchilikni rivojlantirish modellarini qurishga imkon berishini ta'kidlab o'tgan [8].

Xudiyakova E.V. va Lipatov A.A. o'z tadqiqotida imitatsion modellashtirishning umumiy masalalarini ko'rib chiqqan va Vensim, GPSS World hamda AnyLogic dasturlari yordamida imitatsion modellarni qurish usullarini bayon etgan [15].



Mahalliy olimlardan Xasanov A. o'z tadqiqot ishida chorvachilikni rivojlantirish tendensiyalarini o'zgartirishda "aqli fermalar" va "raqamli poda" texnologiyalarini joriy etish va takomillashtirish bo'yicha fikrlarni ilgari surgan [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi parrandachilikni rivojlantirish hamda sohada kechayotgan tendensiya va qonuniyatlarni tahlil qilish bo'yicha mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot natijalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parrandachilikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlariga asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotning metodologik jihati parrandachilik holati va rivojlanishini statistik tahlil qilish, raqamli texnologiyalar yordamida parrandachilikni rivojlantirish bo'yicha istiqbol reja va loyihalarni amaliyotga joriy etish yo'llarini asoslashdan iborat.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Raqamlashtirish qishloq xo'jaligini, shu jumladan parrandachilikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u parrandachilik korxonalaridagi biznes jarayonlarini optimallashtiradi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va bozorda eng xaridorgir hamda raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarishga imkon beradi. Raqamlashtirish bevosita iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish bilan bog'liq ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofidir.

Ma'lumki, kishilarning ta'lim, ilmiy-tadqiqot va kasbiy faoliyatida hal etiladigan vazifalar ikki turga bo'linadi – hisob-kitob va funksional. Hisob-kitob vazifalarining maqsadi – parametrlarni, obyektning xarakterlovchi xususiyatlarini hisoblash, mavjud ma'lumotlarni qayta ishlash hisoblanadi. Funksional vazifalar esa boshqaruv va loyihalash funksiyalarini amalga oshirishda yechimni talab qiladi. Ular jumlasiga, masalan, korxona faoliyatini boshqarish, mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish, transportlarda yuk tashishni boshqarish va hokazolar kiradi.

Qo'yilgan vazifalarni modellashtirish vositalari yordamida hal qilish jarayoni 1-rasmda ko'rsatilgan chizma asosida ifodalanadi. Haqiqiy obyekt deganda tadqiq qilinayotgan obyekt (tizim, hodisa, jarayon) tushuniladi. Model – bu moddiy yoki xayoliy obyekt bo'lib, u bilish jarayonida haqiqiy obyektning o'zining muhim xususiyatlarini saqlagan holda almashtiradi. Modellashtirish – bu model yordamida haqiqiy obyektning tadqiq qilish jarayonidir. Bunda boshlang'ich obyekt prototip yoki original deb ataladi.

Modelning vazifalari o'z ichiga modellashtirish maqsadini, modellashtiriladigan obyektning xususiyatlarini aniqlash va modellashtirishni qanday vositalar yordamida amalga oshirishni oladi. Ular barchasi modellashtirilayotgan obyektning ifodalab beradi.

Keyinchalik esa modellashtirilayotgan obyektga tadqiqotlar amalga oshiriladi va uning natijalari tahlil qilinadi. Agar natijalar kutilganidek bo'lsa, modellashtirish jarayoni tugatiladi. Aks holda, kutilgan natijalarni bermagan hollarda tadqiqot jarayoni yana takrorlanadi (1-rasm).



1-rasm. Modellashtirish yordamida vazifalarni bajarish jarayoni chizmasi

Modellashtirish nafaqat moddiy obyektlarni, balki jarayonlarni ham amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, konstruktorlar samolyot uchish sharoitlarini yerda takrorlash uchun aerodinamik trubadan foydalanadilar. Kelgusida “modellashtirish obyekti” atamasini keng ma’noda tushunamiz: bu moddiy obyekt (buyum, tizim) ham, haqiqiy jarayon ham bo’lishi mumkin.

Model real obyektning barcha xususiyatlarini emas, faqat kelajakda qo’llanilishi uchun zarur bo’lganlarini takrorlaydi. Shuning uchun modellashtirishda maqsad tushunchasi muhim o’rin tutadi. Modellashtirish maqsadi – kelajakdagi modelning vazifalarini aniqlab olishdan iborat. Maqsad obyekt-originalning modelda aks ettirilishi kerak bo’lgan xususiyatlarini belgilaydi. Boshqacha aytganda, model – bu modellashtirish maqsadiga javob beradigan, o’rganilayotgan real obyektning muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi, soddalashtirilgan ko’rinishidir.

Bir xil obyektlar uchun ko’plab turli modellar yaratish mumkin. Qaysi modelni tanlash – hal qilinadigan vazifaga muvofiq aniqlanadigan modellashtirish maqsadiga bog’liq. Boshqa tomondan, bir xil model turli obyektlarni ifodalashi mumkin. Masalan, yuqumli kasallik tarqalishi jarayoni va radioaktiv parchalanish jarayonining matematik modellari ularning matematik tavsifi nuqtayi nazaridan bir xildir.

Parrandachilikni modellashtirishda qo’llaniladigan modellashtirish usullarini shartli ravishda 1-jadvalda keltirdik (1-jadval)<sup>2</sup>.

1-jadval. Parrandachilikni modellashtirishda qo’llaniladigan modellashtirish usullari

| Model turi                       | Qo’llanish sohasi                                                                                     | Afzalligi                                                                                                                              | Cheklanishi                                                                                                     |
|----------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Chiziqli dasturlash</b>       | Ekinlar tuzilmasini optimallashtirish                                                                 | Xarajatlarni kamaytirish, daromadni oshirish                                                                                           | Aniq ma’lumotlar talab qiladi                                                                                   |
| <b>Dinamik modellashtirish</b>   | Uzoq muddatli rejalashtirish                                                                          | Moslashuvchanlik, o’zgarishlarga moslashish                                                                                            | Amalga oshirishning yuqori murakkabligi                                                                         |
| <b>Stoxastik modellashtirish</b> | Ishlab chiqarishdagi noaniqliklarni hisobga olish                                                     | Xavflarni bashorat qilish, ishonchlilik                                                                                                | Ko’p miqdorda hisoblash quvvati talab qiladi                                                                    |
| <b>Regressiya modellar</b>       | Hosildorlikni bashorat qilish                                                                         | Soddaligi, yuqori tushunariligi                                                                                                        | Chiziqli bog’liqliklar bilan cheklangan                                                                         |
| <b>Mashinani o’rganish</b>       | Katta ma’lumotlarni tahlil qilish, narxlarni bashorat qilish                                          | Yuqori aniqlik, avtomatizatsiya                                                                                                        | Ko’p miqdorda ma’lumotlar talab qiladi                                                                          |
| <b>Raqamli egizaklar</b>         | Murakkab jarayonlarni modellashtirish                                                                 | Ssenariylarni vizualizatsiya qilish, sinovdan o’tkazish                                                                                | Yuqori ishlab chiqish xarajatlari                                                                               |
| <b>Imitation modellar</b>        | Modellar, ekvivalentlar va simulyatsiya yordamida murakkab ob’ektlar va jarayonlarni o’rganish usuli. | O’rganilayotgan jarayonning vaqti bo’yicha nazorati, katta modelni qismlarga ajratish, o’zgarishlarni tez hisobga olish va prognozlash | Ishlanmalarning yuqori qiymati, aniq andozalarning mavjud emasligi va modelning natijalarning turlicha bo’lishi |

1-jadvalda keltirilgan modellashtirish usullari parrandachilikda turli vazifalarni hal etishda keng qo’llaniladi. Chiziqli dasturlash ekin maydonlari va chorva mollari tarkibini optimallashtirishda keng foydalaniladi. Bu mahsulot ishlab chiqarish bilan bog’liq xarajatlarni qisqartirishga va shu orqali daromad hajmini oshirishga imkon beradi. Biroq, bunday modellarni tuzish aniq ma’lumotlarni talab qiladi.

Dinamik modellar uzoq muddatli davrda iqtisodiy jarayonlarni rejalashtirishda qo’llaniladi. Ularning afzalligi – tuzilgan modellarning moslanuvchanligi va turlicha sharoitlarda yuzaga keladigan o’zgarishlarni hisobga olish xususiyatidir.

Stoxastik modellar ishlab chiqarish jarayonlaridagi noaniqliklarni hisobga olib, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xavf-xatarlarni prognoz qilish imkonini beradi. Bu modellarni tuzishda ko’pdan-ko’p hisob-kitoblar zarur bo’ladi.

Mashinani o’rganishga asoslangan modellar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va narx o’zgarishlarini bashorat qilish imkonini beradi. Bu yuqori aniqlikka va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga olib keladi, ammo bunday modellarni tuzish ko’p miqdordagi ma’lumotlarni talab qiladi.

Raqamli egizaklar murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirishda keng qo’llaniladi va ularning qulayligi – turli ssenariylarni namoyish qilish va sinovdan o’tkazish imkoniyatida. Biroq, bu yuqori ishlab chiqarish xarajatlarini talab qiladi.

2 Кладыко В. А., Зозуля В. В., Ринас Н. А. (2025). Математическое моделирование как инструмент повышения эффективности сельскохозяйственного производства // Прикладные экономические исследования. – 2025. – № 2.



Zamonaviy parrandachilik ma'lumotlar tahlili va statistik modellashirish elementlarini ishlab chiqarish jarayonlariga faol joriy etish orqali jadal rivojlanmoqda. Iqtisodiy tahlilning kuchli vositalaridan biri regressiya tahlil bo'lib, u parrandachilik faoliyatini ifodalovchi turli ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va kelajakdagi qiymatlarni bashorat qilish imkonini beradi. Parrandachilikda regressiya tahlilining qo'llanilishi mahsuldorlikni optimallashtirish, parvarishlash sharoitlarini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Regressiya tahlil – bu bog'liq o'zgaruvchi (masalan, parranda mahsuldorligi) va bir yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchilar (masalan, rasion, harorat, parranda yoshi va boshqalar) o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi statistik usuldur. Regressiya turlari:

1. Chiziqli regressiya – parrandachilik ko'rsatkichlari o'rtasida chiziqli bog'liqlik mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

2. Ko'p omilli regressiya – natijaviy ko'rsatkichlarga bir necha ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

3. Chiziqsiz regressiya – ko'rsatkichlar o'rtasida chiziqli bog'liqlik mavjud bo'lmagan holatlarda qo'llaniladi.

Regressiya tahlilning qo'llanilishi quyidagilarga imkon beradi:

- Parrandalar bosh soni va mahsuldorligini prognoz qilish;
- Ovqatlantirishni optimallashtirish;
- Tashqi omillarning parrandalar faoliyatiga ta'sirini baholash;
- Seleksiya ishlarini amalga oshirish va natijalarni o'rganish.

Imitatsion modellashirish parrandachilikda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bilan bog'liq vazifalarni hal etishda qo'llaniladi:

- Texnologik jarayonlarni tavsiflash – mahsulotlarni qayta ishlash majmuasi jarayonlarini operativ boshqaruv masalalarini hal qilish;

- Xodimlar sonini optimallashtirish – tayyor mahsulotni jo'natish uchun zarur xodimlarning optimal sonini aniqlash;

- Tozalash inshootlarini modellashirish – tizimning turli xatti-harakatlar senariylarini tahlil qilish, suv iste'moli va oqova suvlarning mavsumiy o'zgarishlarini hisobga olish;

- Epizootik jarayonlarni prognozlash – veterinariya ma'lumotlari asosida turli kasalliklarning matematik modellari yaratish.

Imitatsion modellashirish noaniq va ma'lumotlar etishmasligi sharoitida, shuningdek, haqiqiy obyektlarda eksperiment o'tkazish mumkin bo'lmagan hollarda vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Boshqaruv hisobi tizimida simulyatsion modellashirish muhim rol o'ynaydi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga turli boshqaruv qarorlari natijalarini bashorat qilish va moliyaviy ko'rsatkichlarga potentsial ta'sirini baholash imkonini beradi. Bu biznes jarayonlarining virtual modellarini yaratishga yordam beradi va ularning vaqt o'tishi bilan, turli ssenariylarda xatti-harakatlarini taqlid qiladi.

Simulyatsion (imitatsion) modellashirish – tadqiqot usuli bo'lib, unda o'rganilayotgan tizim real tizimni yetarli aniqlik bilan tasvirlovchi model bilan almashtiriladi. Tuzilgan model jarayonlarni haqiqatda qanday sodir bo'lishini tasvirlaydi va ushbu tizim haqida ma'lumot olish maqsadida tajribalar o'tkaziladi. Bunday modelni vaqt o'tishi bilan, bir martalik yoki ko'p sonli sinovlar uchun "o'ynash" mumkin. Natijalar jarayonlarning tasodifiy xarakteri bilan belgilanadi va asosida yetarlicha barqaror statistika olish mumkin. Model bilan tajriba o'tkazish imitatsiya deb ataladi<sup>3</sup>.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni qo'llash parrandachilik faoliyatida xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish, mavjud resurslarni tejash, oziq-ovqat va parranda mahsulotlarini ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish jarayonida mahsulot yo'qotishlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni modellashirish va rivojlantirish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

1. Aqlli oziqlantirish tizimlari: Yirik parrandachilik xo'jaliklari an'anaviy qo'lda oziqlantirish moslamalaridan voz kechib, raqamli boshqaruvli avtomatik va yarim avtomatik oziqlantirish tizimlariga o'tmoqda. Bu parrandalarni parvarishlashda vaqt va mehnat xarajatlarini tejash bilan birga, ularning salomatligini ta'minlab, kasallanish va o'lim darajasini kamaytiradi.

2. Innovatsion sug'orish tizimlari: Avtomatlashtirilgan suv ta'minoti tizimlari parrandalarga sifatli va vitaminlarga boy suvni yetkazib berib, ularning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

3. Tuxum yig'ishni avtomatlashtirish: Ichki tashish tizimlari yordamida tuxumlarni yig'ish va saralash jarayonlari tezlashadi, ularning sifatini va hajmini baholash imkoniyati oshadi. Bu vaqt va ish kuchi xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

3 <https://ru.wikipedia.org>

4. Raqamli dispetcherlik tizimlari: Avtomatik iqlim nazorati va tuzatish imkoniyatiga ega dispetcherlik tizimlari harorat, namlik, yoritish, havo tarkibi va ventilyatsiyani kompleks nazorat qiladi. Natijada, parrandalarga optimal sharoitlar yaratiladi, zararli gazlar va hidlar chiqarib yuboriladi, parrandalar salohiyati to'liq ochiladi.

5. Robotlashtirilgan tizimlar: Zamonaviy fernalarda robotlar parrandaxonalarni tozalash va dezinfektsiyalash, to'shaklarni aylantirish, shamollatish va hayotiy muhim parametrlarni nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Bu parrandalar salomatligini ta'minlash, kasalliklarning oldini olish va mahsuldorlikni oshirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt yordamida modellashtirish yondashuvlari:

- Mahsulot sifatini nazorat qilish: Mashinani ko'rish tizimi mahsulotlardagi mayda nuqsonlarni aniqlaydi, neyroset tarmoq tasvirlarni tahlil qiladi va avtomatik saralash qarorlarini qabul qiladi.

- Parranda sog'lig'ini monitoring qilish: SI podaning salomatligini kuzatadi, kasalliklarni bashorat qiladi va muolajalarni vaqtida tavsiya qiladi.

Shu tarzda, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt parrandachilikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslarni tejash va mahsulot sifatini nazorat qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kuchaytiradi<sup>4</sup>.

Saqlash sharoitlarini optimallashtirish. Avtomatlashtirilgan tizimlar real vaqt rejimida ma'lumotlarni (harorat, namlik, ozuqa, suv) to'playdi va mikroiklimni hamda oziqlantirish jarayonini masofadan nazorat qilish imkonini beradi.

Tuxum yig'ish, chiqindilarni tozalash va parrandaxonada gigiyenani saqlashni avtomatlashtirish. Bu jarayon mehnat xarajatlarini kamaytiradi, xodimlarga bo'lgan xarajatlarni qisqartiradi, sanitariya himoyasini oshiradi va mahsulot yo'qotilishini minimallashtiradi.

Podaning va parranda xulq-atvorining monitoringi. Buning uchun dronlardan foydalaniladi. Ular monitoring qilish, parrandaxonalar infratuzilmasini tekshirish, bioxavfsizlikni kuchaytirish va ozuqani aniq dozlash vazifalarini bajaradi.

Sun'iy intellektni parrandachilikka joriy etish. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, podaning sog'lig'ini yaxshilash, nuqsonlar tufayli yo'qotishlarni kamaytirish va mahsuldorlikni oshirishga yordam beradi<sup>5</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olgan holda, parrandachilikni raqamli transformatsiya qilish boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ilgari mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni olish, resurslarni optimallashtirish va mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini beradi.

Raqamlashtirish qishloq xo'jaligini, shu jumladan parrandachilikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u parrandachilik fabrikalaridagi biznes jarayonlarini optimallashtiradi, samaradorligini oshiradi va bozorda eng talabgir hamda raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida parranda yetishtirishni modellashtirish monitoring, prognozlash, boshqaruv va ekologik jihatlarini hisobga olish bilan bog'liq usullarni qo'llashni talab qiladi. Ushbu usullar real vaqt rejimida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, jarayonlarni optimallashtirish hamda atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalarni integratsiyalashuviga asoslangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lingireddy H, , Bhargava K, Abhishek E. (2023) An Overview of Digital Technologies in Agriculture and their Applications. Biological Forum – An International Journal 15(2): 750-757
2. Abdullaev O.M., Fattaxov A.A., K.Axmedov.(2020) Raqamli iqtisodiyot. T.: "LESSON PRESS, nashriyoti, 686 bet
3. Fayzullaev J.N. (2022). Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati bo'yicha ilmiy yondashuvlar tahlili Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi, 1(149)
4. Oltaev Sh.S.(2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakat qishloq xo'jaligini iqtisodiy rivojlantirish bosqichlari va uning institutsional shart-sharoitlari, Journal of marketing, business and management. www.jmbm.uz. Volume 3, Issue 9 (february).
5. Xasanov A.A. (2019) Chorvachilik mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarishning statistik tadqiqoti. Toshkent.
6. Звонарев, С. В.(2019) Основы математического моделирования: учебное пособие / С. В. Звонарев. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 112 с.
7. Ивашова О.Н. и др.(2022). Внедрение цифровых технологий для обеспечения развития сельскохозяйственной отрасли, International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 3-2 (66)
8. Игнашева Т.А.(2023) Моделирование сферы животноводства и растениеводства в регионе, Развитие территорий. № 2. С. 72—81.
9. Исенко А. И.(2015). Понятия модели и моделирования в человеческой деятельности // Концепт. — № 04 (апрель)
10. Кладыко В. А., Зозуля В. В., Ринас Н. А.(2025). Математическое моделирование как инструмент повышения эффективности сельскохозяйственного производства //Прикладные экономические исследования. — 2025. — № 2.

4 <https://agbz.ru/news/kak-modernizirovat-ptitsefabriku-s-pomoshchyu-iskusstvennogo-intellekta/ysclid=mefawn507508848546>

5 <https://sinto-tech.ru/blog/avtomatizatsiya-ptitsefabrik/avtomatizatsiya-protssosov-na-ptitsefabrikakh-trendy-i-tehnologii-2025-2026-goda/?ysclid=mefay93i8944491178>



11. Лаврушина Е.Г.(2013). Применение имитационного моделирования для совершенствования производственных процессов промышленного птицеводства. Интернет-журнал «Науковедение» Выпуск 6, ноябрь – декабрь
12. Остаев Г.Я., Хосиев Б. Н.(2024). Цифровая трансформация экономики сельского хозяйства, Образование. Наука. Научные кадры № 3,
13. Федоров А.Д. и др, (2019). О перспективах цифровизации животноводства, Journal of VNIIMZH №1(33)-2019,
14. Хабибуллина Л. А., Каримова Г. И.(2023). Развитие отрасли животноводства в условиях цифровой экономики в Республике Татарстан, БИЗНЕС. ОБРАЗОВАНИЕ. ПРАВО. февраль № 1(62),
15. Худякова Е.В., Липатов А.А.(2021).Имитационное моделирование процессов и систем в АПК/Учебник. – М: ИКЦ «Колос-с», 256 с
16. Bobomuratov, I. (2025). Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish. Muhandislik va iqtisodiyot, 3(8).
17. Bobomuratov, I. (2025). Parrandachilikni statistik o'rganish usullari. "Raqamli iqsodiyot" ilmiy-elektron jurnali, 12/2025, 354-365b.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)